



***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI***

***O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI***

***Sirdaryo viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi  
boshqarmasi***

***PAXTAKOR MAISHIY XIZMAT KASB-HUNAR KOLLEJI***

**332-guruh o'quvchisi Astanov Temurning  
“Power Pointda prezentatsiyani namoyish qilish va ishlash”  
mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Kafedra mudri** \_\_\_\_\_  
( imzo ) ( F.I.SH )

**Ilmiy raxbar** \_\_\_\_\_  
( imzo ) ( F.I.SH )

Paxtakor-2015 yil  
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi

O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi vazirligi

Sirdaryo viloyati o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi  
boshqarmasi

## **Paxtakor maishiy xizmat kasb-xunar kolleji**

“ \_\_\_\_\_ ”

bo'limi

# **MALAKAVIY LOYIHA ISHI**

Mavzu: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Mutaxassisligi: \_\_\_\_\_

Kasbi: \_\_\_\_\_

Guruxi: \_\_\_\_\_

Loyihaladi: \_\_\_\_\_

Loyiha raxbari: \_\_\_\_\_

Mastlahatchi: \_\_\_\_\_

Bo'lim boshlig'i: \_\_\_\_\_

Taqrizchi: \_\_\_\_\_

Paxtakor 2015

# Malakaviy loyixa ishini tartibi va xajmi

Titul varag'i: \_\_\_\_\_

Mundarija: \_\_\_\_\_

Kirish: \_\_\_\_\_

Malakaviy loyixa ishini qisqacha  
tavsifi: \_\_\_\_\_

Texnologik xisob -  
kitob: \_\_\_\_\_

Xafsizlik  
texnikasi: \_\_\_\_\_

Elektr  
xafsizligi: \_\_\_\_\_

Yong'in  
xafsizligi: \_\_\_\_\_

Sanoat  
sanitariyasi: \_\_\_\_\_

Mexnat  
gigeniyasi: \_\_\_\_\_

Xulosa: \_\_\_\_\_

Foydaniilgan adabiyotlar:

---

---

---

---

---

**“Tasdiqlayman”**  
**Ishlab chiqarish ta’limi**  
**bo’yicha direktor o’rinbosari**  
\_\_\_\_\_ **Q X Qudratov**  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **2015 yil**

## Malakaviy loyiha ishi uchun topshiriq

Mutahassisligi: \_\_\_\_\_

Kasbi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ Gurux  
o’quvchisi \_\_\_\_\_ ning

1. Malakaviy loyiha ishi mavzusi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ sonli “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yildagi buyrug’iga asosan tasdiqlangan

2. Malakaviy loyiha ishini bajarish uchun dastlabki ma’lumotlar.

2.1 \_\_\_\_\_

3. Malakaviy loyiha ishini tarkibi.

3.1 Kirish

3.2 Texnologik qisim

3.3 Xulosa

3.4 Foydalanilgan adabiyotlar

4. Texnologik hisab kitob qismini tarkibi

4.1 \_\_\_\_\_

5. Iqtisodiy qisimni (biznes reja tuzish ) tarkibi.

5.1 \_\_\_\_\_

6. Grafikaviy qismini tarkibi

6.1 \_\_\_\_\_

7. Malakaviy loyiha ishini bajarish taqvim rejasi.

№	Bajarilgan ishni nomlari	Bajarilish muddati	
		Rejada	Amalda
7.1	Kirish		
7.2	Texnologik qisim		
7.3	Iqtisodiy qisim ( biznes reja tuzish )		
7.4	Mexnatni muxofaza qilish		
7.5	Grafikaviy chizma qismi		

8. Malakaviy loyiha ishi berilgan kun “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015yil

**Ilmiy raxbar**

\_\_\_\_\_ ( imzo )

\_\_\_\_\_ ( F.I.SH )

**Bo’lim boshlig’i** \_\_\_\_\_

( imzo )

( F.I.SH )

# Paxtakor maishiy xizmat kasb-xunar kolleji

“ \_\_\_\_\_ ” bo’limi \_\_\_\_\_ guruh  
o’quvchisi \_\_\_\_\_ ning

Malakaviy loyiha ishi uchun

## MULOHAZA

Malakaviy loyiha ishi mavzusi

1. Malakaviy loyiha ishini dolzarbligi va berilgan topshiriq bo’yicha bajarilishi

2. Bitiruvchining nazariy va amaliy tayyorgarligi qabul qilingan qarorlariga nisbatan mustaqilligi.

3. Malakaviy loyiha ishining yutiqlari

4. Taqdim etilgan malakaviy loyiha ishining talab darajasini rasmiylashtirish darajasi

5. Malakaviy loyiha ishini grafikaviy qismini rasmiylashtirish

6. Malakaviy loyiha ishini bajarish sifati bo’yicha hulosalar

7. Malakaviy loyiha ishining

Malakaviy loyiha ishiga

taqriz beruvchi \_\_\_\_\_

Vazifasi ( lovozimi ) \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yil

# Paxtakor maishiy xizmat kasb-xunar kolleji

“ \_\_\_\_\_ ” bo’limi \_\_\_\_\_ guruh  
o’quvchisi \_\_\_\_\_ ning

Malakaviy loyiha ishi uchun

## TAQRIZ

Malakaviy loyiha ishi mavzusi

\_\_\_\_\_

1. Malakaviy loyiha ishini berilgan mavzuga mosligi

\_\_\_\_\_

2. Malakaviy loyiha ishini xar bir bo’limini bajarilishi bo’yicha tavsifi

\_\_\_\_\_

3. Qo’yilgan masalalarni yechilish darajasi, ishining nazariy va amaliy bajarilishiga tavsifi.

\_\_\_\_\_

4. Malakaviy loyiha ishining kamchiliklari.

\_\_\_\_\_

5. Malakaviy loyiha ishini tushintirish xatini rasmiylashtirish.

\_\_\_\_\_

6. Malakaviy loyiha ishini grafikaviy qismini rasmiylashtirish.

\_\_\_\_\_

7. Malakaviy loyiha ishini bajarilish , sifati bo’yicha hulosalar.

\_\_\_\_\_

8. Malakaviy loyiha ishini bahosi: \_\_\_\_\_  
Malakaviy loyiha ishining taqriz eruvchi \_\_\_\_\_

Vazifasi ( lovozimi ) \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yil

# MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	9
I. Diplom ishini bajarishda qo'yilgan vazifalar.....	9
II. Diplom loyihasining mazmuni.....	10
III. O'zbekistonda kompyuterlashtirish istiqbollari.....	11
<b>ASOSIY QISIM</b>	
<b>1. Power Point dasturi</b> .....	<b>12</b>
1.1 Power Point dasturi bilan tanishish.....	12
1.2 Power Pointda prezentasiyalar yaratish bosqishlari va ularni namoyish qilish.....	15
1.3 Power Point dasturi oynasi va menyusi.....	17
<b>2. Power Pointda ishlash</b> .....	<b>19</b>
2.1 Power Pointda prezentatsiya namoyish qilish va ishlash .....	19
2.2 Jihozlar .....	22
2.3 Iqtisodiy qism .....	23
2.4 Mehnat muhofazasi .....	24
2.5 Xulosa .....	27
2.6 Xato va kamchiliklar uchun .....	28
2.7 Foydalanilgan adabiyotlar .....	29

# **MAVZU: “POWER POINTDA PREZENTATSIYANI NAMOIYISH QILISH VA ISHLASH”**

## **REJA:**

### **1. Power Point dasturi**

1.1 Power Point dasturi bilan tanishish

1.2 Power Pointda prezentasiyalar yaratish bosqichlari va ularni

namoyish qilish

1.3 Power Point dasturi oynasi va menyusi

### **2. Power Pointda ishlash**

2.1 Power Pointda prezentatsiya namoyish qilish va ishlash

2.2 Jihozlar

2.3 Iqtisodiy qism

2.4 Mehnat muhofazasi

## **DIPLOM ISHINI BAJARISHDA QO'YILGAN VAZIFALAR.**

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun foydalanuvchi zarur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak. Diplom ishini bajarishda foydalanuvchida zarur bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadi qo'yilgan.

Ma'lumot yoki axborot tarixan moddiy va ma'naviy boyliklar qatoridagi qadriyatlardan bo'lib kelgan. Tinch hayot davrida xom ashyoni qayta ishlash, inshootlarni puxta qilib yaratish, tabiat injiqliklariga bardosh ber olishga doir tajriba xulosalari yozma yoki og'izdan- og'izga ko'chirib ma'lumot, oila, qabila va millat – elatlarning movqiyini belgilovchi manba va boylik sifatida qadirlangan. Urush yoki tahlikali kunlarda esa dushman qurolli kuchlari, rejalari, mudofa imkoniyatlari haqidagi ma'lumot hayot – mamot masalasi bo'lgan. To'g'ri va tezkor tarzda katta hajmdagi ma'lumotni qayta ishlash maqsadida kompyuter ixtiro qilingan.

Ushbu diplom ishini bajarishda menga kompyuterda Power Pointda prezentasiyani namoyish qilish va ishlash prezentasiyasini yaratish vazifasi topshirilgan. Diplom ishini bajarishda men kollejda mavjud kompyuterlardan foydalanib mazkur prezentasiyani yaratishga harakat qildim.

## **DIPLOM LOYIHASINING MAZMUNI.**

Ushbu diplom ishini bajarishda men Power Point dasturidan foydalanib Power Pointda prezentasiyani namoyish qilish va ishlash prezentasiyasini yaratish yo'llarini ochib berishga harakat qildim. Qabul jarayonlarida o'quvchilar, ota-onalar, turli soha vakillarini kollej hayoti bilan tanishtirishga ehtiyoj tug'iladi. Bunda o'quv muassasasining tajribali pedagoglari kollej hayoti haqida hikoya qilib berishlari, kollejdagi mavjud imkoniyatlar, yaratilgan shart-sharoitlar, mavjud moddiy texnika bazasi haqida batafsil ma'lumot berishga to'g'ri keladi. Lekin shunday holatlar ham bo'ladiki bu ishni bajarish imkoniyati bo'lmaydi. Kompyuterda shu mavzudagi tayyor prezentasiya (taqdimot) bo'lsa bu ush juda qulay bo'ladi.. Men yaratmoqchi bo'lgan prezntasiya esa bu qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ishni bajarishda men avvalo O'zbekistonda kompyuterlashtirish istiqbollari.Informatika fani, uning rivojlanish bosqichlari va istiqbollari, SHEHMLar yaratilish tarixi,uning avlodlari haqida qisqacha ma'lumot berdim. Nazariiy qismda men Windows dasturi, Windows dasturi tarkibidagi Power Point dastiri, Power Point dastirining ishlash prinsiplarini bayon qildim. Shunindek ishni bajarishda zarur bo'lgan jihozlar, iqtisodiy imkoniyatlar va mehnat muhofazasi va texnika xavsizligi qoidalariga rioya qilish tartibi to'g'risida to'xtalдим.

Men, tayyorlagan prezentasiya kollej faoliyatini ochib berish, reklama faoliyati uchun qulay va foydali prezentasiyadir.

## O'zbekistonda kompyuterlashtirish istiqbollari.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng uning oldida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beradigan kompyuter tizimini rivojlantirishga qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 8 dekabr qarori bilan Fan va texnika bo'yicha Davlat qo'mitasi qoshida Axborotlashtirish bo'yicha bosh boshqarma tuzildi. Mazkur qarorda belgilab berilgan asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari doirasida O'zR FTDQ tashabbusi bilan axborotlashtirish jarayonini rivojlantirish uchun bir necha qonunlar qabul qilindi. Shulardan biri Axborotlashtirish haqida 1993 yil, may oyida qonun qabul qilingan. O'zR FTDQ Axborotlashtirish haqida Qonunning qoidalarini bajara borib, 1994 yil dekabrda Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish konsepsiyasini ma'qulladi. Ushbu Konsepsiyaning asosiy maqsadi va unda qo'yilgan masalalar quydagilardan iboratdir:

Milliy axborot – hisoblash tarmog'ini yaratish;  
Axborotlarga tovar sifatida yondoshishning iqtisodiy, huquqiy va me'yoriy hujjatlarini yuritish;  
Axborotlarni qayta ishlashning jahon standartlariga rioya qilish;

Informatika industriyasini mujassamlashtirish va rivojlantirish va qo'llab – quvvatlash;

Informatika vositalari foydalanuvchilarini tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish. Konsepsiyaning asosiy qoidalari hisobga olingan “O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish dasturi” ishlab chiqildi u uch maqsadli dasturni o'z ichiga oladi;

- a) Milliy axborot – hisoblash tarmog'i;
- b) EHMni matematik va dasturiy ta'minlash;
- c) Shaxsiy kompyuter.

O'zbekiston axborot texnologiyalarini tadbiq etish va rivojlantirish uchun talay intellektual imkoniyat va axborot zahiralari ega. Fanlar Akademiyasi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, ishlab chiqarish va firmalarda kompyuter texnikasi, aloqa, dasturiy va axborot ta'minoti, axborot tizimlari bo'yicha malakali hodimlar ishlamoqda.

Buning yorqin dalili sifatida 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Kadrlar tayorlash milliy dasturi” ni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq V sessiyasida Prezident I. Karimov ko'targan masalalar yuzasidan 2001 yil 23 mayda Vazirlar Mahkamasining “2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet”ning xalqaro ahbarot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida “ gi Qarorini va 2001 yilning may oyida o'tkazilgan Internet festivalini aytib o'tish mumkin.

Mustaqil respublikamizda kompyuterlashtirish rivojlantirish, yuqori texnologiyalarni samarali va sifatli darajada qo'llash, hududimizdagi kompyuterlar bozorini kengaytirish va shunga o'xshash yo'nalishlarda qator tadbirlar o'tkazilidi va yangilari rejalashtirilmogda.

## POWER POINT DASTURI BILAN TANISHISH


Microsoft Power Point 97- universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, video va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd- ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqalari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi. Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekrnida, videomonitorda, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko'rgazmani tashkil qilish-slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir. Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va boshqalarga bog'liq ekanligini ham unutmash lozim.

Power Point dasturi Microsoft firmasining Windows qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalari taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalaridan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda bu dasturdan multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab namoyish etuvchi qurilmalarga yuborush vazifalarini ham bajarish mumkin. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu- slayd va prezentatsiya tushunchalaridir. Prezentatsiya ( taqdimot)- yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi.

Bu dasturni ishga tushirishni Windows ish stolidan boshlash zarur. Ish stolidagi quyidagi buyruqlarni bajarish orqali dastur ishga tushiriladi.

«Пуск» - « Программы»- « Microsoft Power Point». Bu ketma –ketlikni bajarish uchun sichqonchanning chap tugmasi orqali amalga oshiriladi. (1 –rasm)




1 – rasm

Power Point ishga tushirilganda ekranda ko'rsatilgan taqdimot yaratish uchun quyidagi muloqot darchasini ko'rish mumkin.

Bu muloqot darchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish mumkin bo'ladi. 4 ta asosiy bo'lim berilgan, ularning har biri haqida qisqacha aytib o'tamiz.

- «Мастер автосодержания» (Avtomundarija ustasi)-ma'ruzachi ismi, familiyasi, mavzu nomi, taqdimot turi, uslubi, rangli chizmasini kiritib, bir necha slayddan iborat bo'lgan tayyor taqdimotni chiqaradi.
- «Шаблон презентации» (Taqdimot qoliplari)- taqdimotni jihozlash turini tanlash va ularda ish olib borish.
- «Пустую презентацию» (Bo'sh taqdimotni) – mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.
- «Открыт презентацию» (taqdimotlarni ochish)- kompyuter xorbitasida va diskda mavjud bo'lgan ko'rgazmali fayllarni ochadi.

Har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borish uchun yuqoridagi bilimlardan birini o'z maqsadiga ko'ra tanlab oladi. Dastur ishini bo'sh taqdimotdan ham boshlash mumkun.



2- rasm.

Muloqat darchasidan kerakli holat, masalan: « Пустой слайд » (bo'sh slayd) ko'rinishi tanlanadi va «Ок» tugmachasi bosiladi.

Bu amallar bajarilgandan so'ng Power Point dasturining asosiy oynasi hosil bo'ladi.

## **POWER POINTDA PREZENTASIYALAR YARATISH BOSQISHLARI VA ULARNI NAMOYISH QILISH.**

Yangi taqdimotni yaratishda Power Point dasturining asosiy oynasidagi gorizantal menyuning «Файл»-«Создат» ( fayl –yaratish) buyruqlari ketma- ket bajariladi. Bu buyruqlar bajarilgandan so'ng « Создат презентацию» ( prezentatsiya yaratish) muloqot darchasi qo'llanadi. Bu oynada quyidagi funksiyalarni bajaruvchi buyruqlar mavjud:

1. « Общие» ( Umumiy) – yangi taqdimot yaratish qolipi;
2. « дизайны презентаций » ( Taqdimot dizaynlari) – turli taqdimotlarining tasvir ranglari va qoliplarini ko'rsatish, ya'ni, rangi turi, harflar ko'rinishi va taqdimotning boshqa atributlarini aniqlash uchun Power Pointning dizayn shablonini tanlashimiz mumkin.
3. « Презентации» ( Taqdimotlar) – bunda turli sohalarda ish olib borishga mo'ljallangan tayyor taqdimotlar ko'rinishlari keltirilgan.
4. «Web- страницы » ( Web –sahifalar) ko'rinishdagi taqdimotlar. Biz yuqoridagi taqdimotlarni yaratish va ularning turini, dizaynlarini va sarlavhalarini tanlashimiz sichqoncha orqali amalga oshiriladi va ishga tushirish uchun “OK” tugmasi orqali bosiladi.

*Taqdimotlarni saqlash .* Yaratilgan taqdimotlar fayllarda saqlanadi. Saqlash uslubi Windowsning boshqa dasturlaridagi kabidir. Taqdimotlarni saqlash quyidagi usulda bajariladi:

Standart uskunalar panelidagi saqlash (piktogrammasi) tugmasi bosiladi yoki gorizantal menyudan «Файл» - «СОХРАНИТЬ» ( saqlash) buyrug'i beriladi. Shunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo'ladi va ketma-ket quyidagilar amalga oshiriladi.


1. Saqlash uchun fayl nomi va papkasi ko'rsatiladi.
2. « Сохранить » ( Saqlash) tugmasi bosiladi.

*Taqdimotlarni tahrirlash.* Taqdimotlarni saqlagandan so'ng uning tarkibidagi barcha slaydlarni alohida- alohida o'zgartirish mumkin. Buning uchun yaratilgan slaydlarga sichqoncha ko'rsatkichi olib kelinadi va tugmasi bosilib tasdiqlangandan so'ng kerakli o'zgartirishlarni kiritish mumkin bo'ladi.

### **Prezentasiyaga zarur bo'lgan matnlarni kiritish.**

Mazkur “POWER POINTda “Kollej hayoti” prezentasiyasini yaratish” uchun Power Point dasturi ishga tushiriladi. Dastur ishga tushgach «Формат» bandidan «ПремениТЬ шаблон оформления» ni tanlab olamiz. Shablonlardan biz xohlagan, masalan, “Siniy obelisk”ni tanlab olamiz. Keyin esa “Power Point” dasturida kompyuter haqidagi barcha ma'lumotlarni, jumladan kompyuter avlodlari, uning asosiy qurilmalari haqidagi ma'lumotlarni kiritamiz.

Prezentasiya yoki taqdimotlar proyektor orqali katta ekranda keng auditoriyada nomoyish qilinishini e'tiborga olgan holda matnlarni yirik, dona-dona holda kiritish zarur bo'ladi. Matnlarimiz Times New Roman shriftida 24-44 o'lchamlarida yoziladi. Matnlarni quyidagi ko'rinishda kiritamiz:




Slaydlarni saralash holatida o'zgartirish kerak bo'lgan slaydlarni belgilab “Формат” (Format) menyusini oching va undagi “разметка слайда” buyrug'ini tanlaymiz. Slaydlarni saralash holatida birdaniga bir necha slaydni belgilash kerak.

Yangi format qo'llanilguncha slayddagi mavjud barcha elementlari o'z joyida qoladi. Balki ularni ko'chirish yoki o'lchovini o'zgartirish mumkin. Power Pointda matnli obektlarni ko'chirishda yoki ularning o'lchovlarini o'zgartirishda “sichqoncha” dan foydalanish kerak bo'ladi.

Yangi slayd yaratishda Power Point har bir slaydni namunaviy matn bilan to'ldiriladi. Bu matnlarni siz o'zingizning matningiz bilan almashtirishingiz lozim. O'z matningizni kiritish uchun bu maydonlardan biri ustida “sichqoncha” tugmasi bosiladi.

## POWER POINT DASTURI OYNASI VA MENYUSI.



3 – rasm.

Oynaning yuqori satrida sarlavha satri, bo'lib u quyidagi ko'rinishga ega,

undan pastki satrda menyu satri,

shundan so'ng bizga kerakli uskunar panellari joylashtirilgan.



Bu yerda ikkita uskunar( «standart », «bichimlash» va rasmlar bilan ishlash) paneli tasvirlangan bo'lib, qo'shimcha yana uskunar panellari qo'yish mumkin.

Uskunar panellari menyuning *Вид – Панел инструментов* buyrug'i orqali qo'yish yoki olib tashlash mumkin rejim( holat) tugmachalari ( slaydlar rejimi, strukturalar rejimi, saralash rejimi namoyishlar rejimi) Gorizontal va vertikal surgich maydoni va ishchi maydonni o'z ichiga oladi.

Power Point ekranining pastki chap burchagida ish rejimi va uning turlarini boshqaruvchi tugmachalar ( piktogrammalar) guruhi joylashgan.


Tugmalarning vazifalari quyidagicha.



- Slaydlar rejimi. Bu rejim tanlanganda ekranda faqat bitta slayd tasvirlanadi. Slaydlar rejimi har bir slaydni ketma – ketlik bilan jihozlab unga kerakli matnlarni kiritish juda qulay.



- Strukturalar rejimida har bir slayd belgi bilan ifodalanadi. Slayd belgisidan keyin tartib raqami va sarlovhasi joylashgan. Sarlovha tagida slayd matni ko'rinadi. Struktura rejimini taqdimot strukturasi o'zgartirganda, sarlovha va matnlarni qayta ishlashda qo'llash tavsiya etiladi. Matn slaydnini strukturaning beshta darajasiga joylashtirish mumkin. Bu rejimda hamma slaydlarning sarlovhasini va matnini ko'rib chiqish, taqdimot strukturasi slaydlarni jihozlash va rasmlarni ko'rib chiqishga chalg'imasdan tekshirib chiqish mumkin.



- Slaydlarni saralash rejimida hamma slaydlar ekranda kichiklashtirilgan holat ko'rinadi. Bu rejim slaydlarning o'rnini almashtirish uslubini o'rnatishda va namoyish vaqtida slaydlarning ekranda ko'rinib turish vaqtini belgilashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, bu rejimda slaydlarning o'rnini almashtirish va slaydlarni kerakli joyga ko'chirish imkoniyati mavjud.



- varaq belgilar rejimi ma'ruza uchun kerak bo'lgan belgilarni tayorlashda va korib chiqishda qo'llaniladi. Taqdimot yaratayotganda har bir slaydni alohida varaqlarga chop etish va har bir varaqni boshqariluvchi matnlar bilan to'ldirish mumkin.



Namoyish etish rejimi ko'rgazmaning oxirgi ko'rinishini qurish uchun mo'ljallangan. Bu rejimda slaydlar ekranga ketma –ket chiqarildi. Namoyish etish tartibi ko'zlanayotgan maqsadga qarab o'rnatiladi. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi namoyishdan avval tayorlab qo'yiladi.

Power Pointdan chiqish uchun «Файл» menyusidan «Выход» (« Chiqish») buyrug'i tanlanadi


## POWER POINTDA PREZENTAZIYANI NAMOYISH QILISH VA ISHLASH.

Taqdimotlarni tayyorlab bo'lgandan keyin ularni namoyish etish kerak. Bundan oldin namoyish parametrlarini o'rnatish kerak. Power Pointni slayddan slaydga sizning buyrug'ingizsiz o'tmaydigan qilib moslashtirishingiz mumkin. Bunda taqdimot davomida uzilishlar bo'lishi mumkin. Shu usul bilan butunlay taqdimotni boshqarish mumkin.

Power Pointni o'zi ketma-ket ko'rsatadigan moslashtirish ham mumkin. Faqat bundan oldin slaydlarning o'tish oralig'ini "repetisiya" qilib o'rnatish kerak. Repetisiya – slaydlar namoyishi bo'lib, bu jarayonda siz Power Pointga har bir slaydning o'tish oralig'I vaqtini berish kerak.

Slaydlarni namoyish qilishga tayyorlashda taqdimotni ochib, VID menyusidan DEMONSTRASIYA buyrug'ini berish kerak.


Taqdimot ko'rsatkichlarini tanlash uchun quyidagi oynadan foydalanamiz:



Slaydlarni namoyish qilish uchun esa menyular qatoridan "Pokaz slaydov" bandini tanlash kerak.

Taqdimotlarni namoyish qilish "Pokaz slaydov" menyusidan "Pokaz slaydov" yoki klaviaturadan F5 tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

Har bir ma'lumotga jumladan kollej faoliyatiga, mavjud yo'nalishlar diqqatga savozor qilingan ishlar, kollejda yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy texnika bazasi, o'quv jaraayonlariga oid mos keluvchi tasvirlarni skaner yordamida olamiz va Paint grafik muharriri yordamida tahrirlab prezentasiyamizning kerakli joylariga joylashtirib chiqamiz.




Slaydlarni tayyorlashda matnlarni dona-dona yirik harflar bilan kiritish zarur. Chunki prezentasiyalar odatda kompyuter ekrani orqali ko'rish uchungina emas, balki proektor yordamida katta ekranlarda katta auditoriyada namoyish qilish uchun tayyorlanadi.

Prezentasiyamizning samaradorligini oshirish uchun har bir tasvir va ma'lumotlarga qisqacha jonli ovozda izoh berilgan fayllarni joylashtirib chiqamiz. Ovozlarni o'rnatish quyidagicha

## Вставка-Фильмы и звуки-Записать звук

Amallar ketma-ketligini bajarish orqali amalga oshiriladi. Buyruq quyidagicha bajariladi:



Bu amallar ketma-ketligi bajarilgach «Звукозапись» oynasi ekranga chiqadi va bu oyna yordamida ovoz yozish ishlari bajariladi.



## **JIHOZLAR.**

Mazkur ishni bajarishda bir qator jihozlardan foydalanildi. Ular quyidagilar:

1. Pentium-III kompyuteri.
2. HP Laser Jet 1150 PCL 5E printeri.
3. Skaner Hewlett Packard
4. “Microsoft Word 2000 Шаг за шагом” elektron o’quv qo’llanmasi.
5. Wicrosoft Windows Me operatsion tizimi.
6. Microsoft Offise tarkibiga kiruvchi Microsoft Power Point dasturi.
7. Paint Brush grafik muharriri.
8. Har xil o’lchamdagi kompakt disklar.
9. Sony, Fullamark markali 1.44 dyumli disketalar.

Pentium-III kompyuterida Windows operatsion tizimi, Microsoft Power Point dasturining ishlash prinsiplari “Microsoft Microsoft Power Point 2000 Шаг за шагом” elektron o’quv qo’llanmasi yordamida o’rganildi. Skaner yordamida kiritilgan rasmlardan Paint Brush grafik muharriridan ish matnida zarur hollarda kerakli rasmlar tanlanib, ishlov berilgan holda qo’yib borish uchun foydalanildi. Loyiha matni HP Laser Jet 1150 PCL 5E printerida bosmaga chiqarildi.

## IQTISODIY QISM.

Power Point universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, video va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd- ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqalari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekranida, videomonitorda, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko'rgazmani tashkil qilish-slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir.

Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va boshqalarga bog'liq ekanligini ham unutmaslik lozim.

Power Point dasturi Microsoft firmasining Windows qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalari taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalaridan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin.

Qabul jarayonlarida o'quvchilar, ota-onalar, turli soha vakillarini kollej hayoti bilan tanishtirishga ehtiyoj tug'iladi. Bunda o'quv muassasasining tajribali pedagoglari kollej hayoti haqida hikoya qilib berishlari, kollejdagi mavjud imkoniyatlar, yaratilgan shart-sharoitlar, mavjud moddiy texnika bazasi haqida batafsil ma'lumot berishga to'g'ri keladi. Lekin shunday holatlar ham bo'ladiki bu ishni bajarish imkoniyati bo'lmaydi. Kompyuterda shu mavzudagi tayyor prezentasiya (taqdimot) bo'lsa bu ush juda qulay bo'ladi

Minglab o'quvchilarni kollejga ekskursiyaga jalb qilish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tahkil qilish qabul jarayonida yuqori natija beradi. Bu imkoniyatlar bo'lmagan holatda esa men tayyarlagan kabi prezentasiya joylashtirilgan 1 dona kompakt disk bilan borib butun kollej haqidagi ma'lumotni taqdim etish mumkin. Bu iqtisodiy tomondan juda ko'p afzalliklarga olib keladi.

## **MEHNAT MUHOFAZASI.**

Kompyuter o'rnatiladigan xonaga kompyuterlar soniga qarab turib, quyidagi talablar quyiladi: ta'limni axborotlashtirish bu tinglovchilarni komp'yuterda nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bilan bajariladi. Shuning uchun komp'yuter xonasida 5 tadan 20 tagacha komp'yuter o'rnatilishi mumkin. Bizning sharoitimizda uning soni 5 taga teng. Shuning uchun komp'yuter xonasini o'lchamlari quyidagicha bo'lishi kerak: 6x10x2,8 metr.

### **Stol va stullarga talablar.**

Kompyuter xonasida stol va stullarga talablar mavjud bo'lib, stol balandligi erdan 68-77 sm bo'lib, stullar esa aylanuvchan bo'lishi kerak va albatta oriasida suyanchig'i bo'lishi kerak. Chunki stol-stullar o'z gabariti bilan to'g'ri kelmasa, foydalanuvchi tezda charchab qoladi. Stol va stullar shunday joylashtirilishi kerakki, ular insonlarga turib yurishga xalaqit bermasligi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi bemaolol xar bitta tinglovchini oldiga borib, uni qilgan xatolarini kompyuterda bemaolol ko'rsata olishi kerak.

### **Insonni antropometrik o'lchovlarini hisobga olish.**

Insonni antropometrik o'lchovlari quyidagicha: o'rtacha balandligi 1 metr 72 sm, elka kengligi 39 sm, qo'llar yoyilmasi 160 sm.

Agarda bu antropometrik o'lchovlar hisobga olinmasa, tinglovchilar ish paytida bir-biriga xalaqit berishi mumkin.

### **Monitordan insonning ko'ziga bo'lgan optimal masofa.**

Monitor ko'zdan ozgina pastroqda va 50 smdan kam bo'lmagan masofada joylashishi kerak. Monitor va ko'z orasidagi masofa 60-70 sm bo'lishi tavsiya qilinadi, bu masofa kichik bo'lsa, insonni ko'zi tezroq charchaydi. Monitorni dizayni va rangi o'ziga etiborni jalb qilmasligi kerak. Shuning uchun monitorning sirt

tomonida har xil reklama yopishtirgichlarini olib tashlash kerak. Monitoring ekrani zangori va ko'k ranglarga bo'yalishi shart. Chunki bu ranglar inson ko'ziga eng yaxshi ranglardan hisoblanadi.

Kompyuterda ishlash vaqtida insonning charchash sabablari  
Kompyuter bilan ishlash vaqtida inson quyidagi faktorlardan charchaydi:

- kontrast va fon o'rtasidagi aniqligi;
- kompyuterda ishlash paytidagi issiqlikdan nurlanishi;
- kompyuterda nurlanishning insonga ta'siri;
- kompyuter buzuvchiligi.

Kompyuter xonasidaga talablar.

Xonaning shipi ok-ko'k fon bilan oqlanishi, devorlari esa yashil rangga oqlanishi kerak. Bu ranglar va oftob nurlanishi bizga kerakli rang iqlimini yaratib beradi.

Elektr xavfsizligi.

Kompyuter xonasida hamma jixozlar elektrotokda ishlaydi, shuning uchun elektr shikastlanishiga uchrash mumkin.

Kompyuterlarni yerga ulash va yerga ulash himoyasiga talablar.

Hamma kompyuterlarda elektr tarmog'iga ulash uchun maxsus sistema ishlatiladi va unda "0" ulash himoyasi qo'llanilgan. "0" ga ulash himoyasi bu "0" simini korpuslarga bog'lash va har xil issiqlikda ishlaydigan avtomatlarni ishga tushiruvchi sistemadir.

Shaxsiy komp'yuterdan foydalanish qoidalari.

Shaxsiy kompyuterni ishga tayyorlash va o'chirish tartiblari mavjud. Avvalambor kompyuterning tarmoq kuchlanishiga mosligini tekshirish kerak. Shaxsiy kompyuterlar 220 yoki 110 kuchlanishli elektr tarmoqlarida ishlashi mumkin.

Shaxsiy kompyuterlar uchun kuchlanishning o'zgarishi, ayniqsa keskin o'zgarishlar xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun maxsus stabilizatorlardan yoki

elektr quvvatining uzluksizligini taaminlovchi - URS qurilmasidan foydalanish

tavsiya etiladi. Maxsus URS qurilmasi elektr quvvatini o'zgarmas holda ushlab turadi, hamda elektr manbai o'chirilgandan keyin muayyan vaqt davomida kompyuter ishlashini taominlab turadi. Bu vaqt kompyuterda bajarilayotgan ishlarni tugatish uchun etarlidir. Masalan, kerakli ma'lumotlarni diskka yozib qo'yish yoki programmalar ishini tugatish uchun va hokazo.

## XULOSA.

Men himoya qilayotgan ushbu diplom ishimda Power Point dasturidan foydalanib POWER POINT da prezentaziyani namoyish qilish va ishlash prezentasiyasini yaratish” masalisini ochib berishga harakat qildim.

Power Point dasturi Microsoft firmasining Windows qobig’i ostida yaratilgan bo’lib, ushbu dastur prezentatsiyalari taqdimot qilish, ya’ni tanishtirish bilan ishlash uchun eng qulay bo’lgan dasturiy vositalaridan biridir. Bu dastur orqali barcha ko’rgazmali qurollarni yaratish va ba’zi joylarda esa ma’lumotlar bazasi sifatida ham qo’llash mumkin.

Men, tayyorlagan prezentasiya barcha o’quv muassasalarida qabul jarayonlarida foydalanish uchun qulay va foydali taqdimotdir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, O’zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta’minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beradigan kompyuter tizimini rivojlantirish bo’yicha juda ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlanishi, yangi avlod darsliklarining yaratilishining hozirgi zamon yoshlarining bilim, konikma va malakalarini puxta egallagan kadrlar bo’lib yetishishida muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

Men shu o’rinda kollejimizda yaratilgan barcha shart-sharoitlar uchun kollej ma’muriyatiga, informatika fanining sir-asrorlarini o’rgatib kelgan jonkuyar ustozlarimga o’z minnatdorchiligimni bildiraman.

## FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotiing poydevari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. T.: "Sharq", 1998.64-b.
2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini dasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Ma'rifat" gazetasi. 200 yil, 4 noyabr.
3. S.S.G'ulomov va b. Axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: "Sharq".2000.
4. V.E.Figurnov. IBM dlya polzovatelya. M.: "Infra-M".1995.
5. A.Ahmedov, N.Taylaqov. Informatika darsligi. T.: "O'zbekiston". 2002.
6. A.R.Maraximov, S.I.Raxmonqulova. Internet va undan foydalanish asoslari. T -2001.
7. M.Aripov, A.Haydarov. Informatika asosalari. T.: "O'qituvchi".2002.3-6,
8. U.Yuldashev va b. Informatika darsligi. T.-2002.
9. Axborot texnologiyalari darsligi. T.: "O'qituvchi".2002.